



Faqat bir kishining
gapirishi masala
qiziqarli bo'lishidan
qat'i nazar,
yig'ilishni zerikarli
qilib qo'yadi

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

QONUN USTUVOR BO'LGAN JOYDA RIVOJLANISH BO'LADI

17-fevral kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining sakson birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyani Kengash raisi, viloyat hokimi E.Turdimov boshqardi.

Dastlab, viloyat mahalliy budjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish, davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasining olib qo'yilishiga ruxsat berish to'g'risidagi hamda tashkiliy masalalar ko'rib, tasdiqlandi.

So'ngra viloyat prokurori J.Xatamovning viloyat prokuratura organlari tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti eshitildi.

Ta'kidlanishicha, 2022-yilda viloyatda prokuror nazoratining barcha soharlarida o'tkazilgan tadbirlar natijasi bo'yicha 9937 ta prokuror nazorati hujjatlari qo'llanilgan. Prokurorlar protestiga asosan 2915 ta noqonuniy hujjatlar qonunga moslashtirildi, 6964 nafar shaxsning buzilgan huquqlari tiklandi.

Qonun talablarini buzgan 5110 nafar shaxs intizomiy, ma'muriy va moddiy javobgarlikka tortildi. Qo'pol qonun buzilishlar yuzasidan 488 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Misol uchun, "Maroqand neft bazasi" MChJ Bulung'ur va Nur-obod filiallari mansabdori va moddiy javobgar shaxslari mansab mavqei suiste mol qilib, 4 milliard 32 million so'mlik neft mahsulotlarini o'zlashtirish yo'li bilan talon-toroj qilgan.

Mazkur holat bo'yicha viloyat prokuraturasi tomonidan tergov harakatlari o'tkazilib, 8 nafar shaxs aybli deb topildi va davlat manfaatlariga yetkazilgan zararni to'liq undirilishi hamda jazoning muqarrarlari ta'minlandi.

Korrupsiyaga oid holatlar yuzasidan 412 nafar shaxsga nisbatan 259 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borildi. Korrupsion jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan 55 milliard 600 million so'm zarardan 49 milliard 300 million so'mi tergov davomida undirildi.

Korrupsiyaga oid jinoyat sodir etganligi uchun jinoyat javobgarlikka tortilgan shaxslarning 264 nafari budjet mablag'larini o'zlashtirgan, 15 nafari pora olgan yoki bergan, 42 nafari firibgarlik jinoyatini sodir etgan.

Xalq ta'limi bo'limlari tomonidan Payariq tumanida 729 million so'm, Past Darg'omda 393,3 million so'm, Kattaqo'rg'on tumanida 288,6 million so'm budjet mablag'larini rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilinganligi aniqlanib, o'tkazilgan tergov natijasida 10 nafar shaxsga nisbatan tegishli ayblovlar e'lon qilinib, mablag'lar budjetga qaytarildi.

Tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida o'tkazilgan nazorat tadbirlarida ishbiarmonlarning huquqlari buzilishi bilan bog'liq 214 ta holat aniqlanib, 61 ta prokuror nazorati hujjatlari qo'llanildi. Shuningdek, tuman va shahar prokuraturalari tomonidan 470 marotaba sayyor uchrashuvlar o'tkazilib, 3136 ta murojaatlar joyida hal qilindi.

Viloyat prokuratori, shuningdek, qurilish sohasidagi qonunbuzarliklar haqida so'z yuritib, o'tgan yil 9

holatda ko'p qavatli uylar qurilishida shaharsozlik me'yorlariga rioya etilmaganini ta'kidladi. Eng yomoni, bunday holatlarga qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasining ayrim mansabdorlari e'tiborsiz qara-gan.

Ushbu yo'nalishda 500 ga yaqin prokuror nazorati hujjatlari qo'llanilib, mas'ullarning 302 nafari ma'muriy va intizomiy javobgarlikka tortilgan. 304 nafari rasman ogohlantirilgan, noqonuniy qurilishlarni buzdirish haqida sudlarga 19 ta da'vo arizalari kiritilgan. Qo'pol qonunbuzilish holatlari bo'yicha 23 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Sessiyada viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i R.Mamatovning 2022-yil davomida viloyatda jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlikka qarshi kurashish borasida olib borilgan ishlar yuzasidan hisoboti ham eshitildi.

O'tgan yil viloyatda 7727 ta jinoyat qayd etilgan bo'lib, ularning 2865 tasi xodimlarimiz tashabbusi bilan aniqlandi, 7083 tasi fosh etildi, oldingi yillarda fosh etilmasdan turgan 285 ta jinoyat ochildi, — dedi R.Mamatov. — Jinoyat sodir etib, sud va tergov idoralardan yashiringan qidiruvdagi shaxslarning 349 nafari ushlab, jazo muqarrarlari ta'minlandi.

Giyohvandlik vositalari bilan muomala qilishga qarshi kurashish borasida 685 ta jinoyat holat aniqlanib, 148 kilogramdan ortiq giyohvandlik moddalarini dalil sifatida rasmiylashtirib olindi.

669 ta o'g'irlik, 1282 ta firibgarlik va 1154 ta yo'l-transport hodisalari sodir etildiki, bu nafaqat organ xodimlaridan, balki barchamizdan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, jinoyatchilikka qarshi hamjihatlikda kurashishni taqozo etadi.

Viloyat IIB boshlig'i davlatimiz rahbarining 2023-yil 20-yanvarda qabul qilingan "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining ahamiyati haqida ham to'xtildi.

Viloyatda 2022-yilda norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati yuzasidan viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i S.Nuriyevning axboroti tinglandi.

Qayd etilishicha, o'tgan yil viloyat adliya boshqarmasi va tuman, shahar bo'limlari tomonidan viloyat hamda tuman (shahar) mahalliy davlat hokimiyati organlarining 555 ta qaror loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilib, 455 tasiga ijobiy xulosa berilgan. 100 ta qaror loyihasi belgilangan talablarga rioya qilinmay taqdim etilgani sababli qaytarilgan.

Bundan tashqari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining 15640 ta qaror va farmoyishlari "E-qaror" elektron tizimi orqali qabul qilindi.

Tuman va shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan maktab, maktabgacha ta'lim va tibbiyot muassasalariga, davlat organlari va tashkilotlarga 2334 ta yuridik xizmat ko'rsatilgan.

Boshqarma boshlig'i, shuningdek, huquqni qo'llash, davlat xizmatlari ko'rsatish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish, huquqiy targ'ibot soharlarida amalga oshirilgan ishlar haqida ham ma'lumot berdi.

Sessiyada muhokama etilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.



Ishtixon tumanida hududni obod qilish, qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish borasida Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani tajribasi asosida keng ko'lamli obodonlashtirish, bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.

Respublika ishchi guruhi tomonidan tumandagi 31 mahallada o'rganish ishlari olib borilib, yechimini kutayotgan masalalar aniqlandi va ularni yechishga kirishildi. Bunda birinchi navbatda, yo'llarni ta'mirlash, aholining ichimlik suvi, elektr energiyasi, tabiiy gaz va suyuqtirilgan gaz bilan ta'minlanishini yaxshilash, salomatligini muhofaza qilish, hududlarda zamonaviy infratuzilma yaratishga e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 17 mahallada 22 kilometrdan ortiq ichki yo'llarni ta'mirlash, piyodalar yo'lakchasi qurish ishlari boshlandi. Bahrin, Safoxo'ja va Chinortepa

ISHTIXON OBOD BO'LMOQDA

mahallalarida elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash uchun 3 ta transformator, 731 ta beton tayanch ustun o'rnatish, 33 kilometr tarmoq tortish yumushlari bajarilmoqda.

So'g'ot mahallasidagi Shirin qishlog'ida elektr uzatish tarmoqlarini yangilash maqsadida qo'shimcha 250 kVli transformator hamda 100 dona temir beton ustun o'rnatildi.

Qirg'yigit mahallasida 2 kilometr yo'lga qumshag'al aralashmasi yotqizildi, Xonaqa mahallasida ham 1,5 kilometr ichki yo'llar shag'allashtirildi.

— Mahallamizdagi to'rt qishloqda 4250 dan ortiq

aholi yashaydi, — deydi "Xonaqa" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Samariddin Muhammadiev. — 17 ta ichki ko'chalarimizning aksariyati ta'mirlab edi. Ayni paytdagi bunyodkorlik ishlari davomida yo'llarga qumshag'al aralashmasi to'shalib, aholi uchun qulaylik yaratilmoqda. Bundan tashqari, 1,5 kilometr masofada asfaltlash ishlari amalga oshirildi.

Tuman mahallalaridagi ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ularga zarur tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish borasida ham mutasaddi idoralar tomonidan zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Davlat dasturiga taklifim bor:

Sayyohlik xizmatlari narxini pasaytirish kerak

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturi loyihasi 80-bandi xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish haqida. Fikrimcha, buni samarali ta'minlash, avvalo, ko'pchilik investorlarni hududlardagi ta'lim va tibbiy xizmatlarining qay darajada ekanligiga ham bog'liq.



Masalan, investor oilasi bilan, ya'ni farzandlari bilan O'zbekistonga ko'chib kelishini nazarda tutadigan bo'lsak, investorning farzandi qaysi maktabga borib joylashadi (o'qiydi), mazkur maktabning ta'lim sifati uning talabiga muvofiqmi yoki yo'qmi, degan savollarga ham javob e'tiborga olinishi kerak. Shu nuqtai nazardan xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini ishlab chiqishda nafaqat investitsiyani jalb etishga e'tibor qaratish, balki investorning shaxsiy hayoti, oilasi, sog'lig'iga ham e'tibor qaratish lozim, deb o'ylayman.

Yana bir taklifim - kapital bozori ishtirokchilarini ko'paytirish, shuningdek, qimmatbaho qog'ozlar bozori mexanizmlari ishtirokini ta'minlash masalasida. Bunda har bir yirik korxonaga va tijorat banklarining integratsiyalashgan mobil ilovalari ishlab chiqilishi va aholi kapitalini jalb etishi, jalb etilgan kapitaldan dividend olinishi yo'lga qo'yilsa, bu iqtisodiyotda

moliyaviy resurslarni ko'paytirish imkonini beradi. Buning uchun avvalo, yirik korxonalar va tijorat banklari odamlarimizning ishonchini qozonishi, manfaatli tomonlarda targ'ibotni kuchaytirish, shuningdek, kafolatlarini aniq ko'rsatishi maqsadga muvofiq.

Turizm rivoji bilan bog'liq taklifim ham bor. Loyihaning 41-bandida bu haqda yozilgan. Ochig'i, bizdagi sayyohlik xizmatlarining narxi jahondagi eng qimmat turistik zonalar bilan tenglashadi. Bu esa o'z navbatida ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dasturda turistik xizmat ko'rsatuvchi ob'ektlarda narxni pasaytirish va ma'lum muddatga davlat tomonidan nazoratga olinishi bilan bog'liq band kiritilishi kerak.

**Shahriyor XOLBOYEV,
SamDU tadqiqotchisi,
Davlat boshqaruvi
akademiyasi Samarqand
hududiy filiali
bosh mutaxassisi.**



TAYINLOV

O'zbekiston Respublikasi Kambag'al-likni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug'iga asosan, Jabborov Isroil Ismoilovich Samarqand viloyati kambag'al-likni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

Prezident qaroriga ko'ra

Yangi ko'p qavatli uylarning tomida quyosh panellari o'rnatiladi

Shu yilning 16-fevral kuni davlatimiz rahbarining "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, 2023-yil 1-apreldan boshlab umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ushbu qurilmalar bo'yicha mol-mulk solig'i, qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer solig'i hamda yuridik shaxslar tomonidan umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foyda solig'ini to'lashdan ular foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran uch yil muddatga, o'rnatilayotgan quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lmagan quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi bilan o'rnatilgan bo'lsa — o'n yil muddatga ozod etiladi.

Tadbirkorlik sub'yektlariga, shu jumladan, xorijiy investorlarga:

qayta tiklanuvchi energiya manbalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini davlat organiga va (yoki) hududiy elektr tarmoqlariga o'rnatilgan tariflarda, boshqa iste'molchilarga o'zaro kelishilgan narxlarda to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan, shu jumladan, uzoq muddatli shartnomalar asosida sotishga;

boshqa shaxslarga tegishli ob'ektlarda ijara huquqi asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurilmalarini o'rnatib, ushbu qurilmalarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini sotishga ruxsat beriladi.

2023-yil 1-apreldan boshlab respublika hududlarida aholi xonadonlariga kichik quvvatli (umumiy quvvati 50 kVt gacha) quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish bo'yicha "Quyoshli xonadon" dasturi amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarga tegishli ob'ektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan orttirib, yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga Davlat budjetidan 1000 so'mdan subsidiya ajratiladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasi hajmi:
oy davomida yagona elektr energetika tizimidan iste'mol qilingan elektr energiyasi hajmidan ko'p bo'lgan taqdirda, shu oy uchun elektr energiyasi bo'yicha "Hududiy elektr tarmoqlari" AJga to'lov qilinmaydi.

2023-yil 1-maydan boshlab foydalanishga topshiriladigan ko'p qavatli uylar tomlari bo'sh qismining kamida 50 foizida quyosh panellarini o'rnatish talabi joriy qilinadi.

2023-yilda 1147 ta issiqxonalar va 250 ta qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar ko'mir yoqilg'isiga o'tkaziladi.

2023-yil 1-maydan boshlab:
yangi tashkil etiladigan issiqxona xo'jaliklari hamda sement, g'isht va ohak mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga tabiiy gaz tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar berilishi taqablanadi; respublikadagi barcha yoqilg'i (avtobenzin, suyuqtirilgan va siqilgan gaz) quyish shoxobchalarining maishiy-texnik ehtiyojlari va hududini yoritish uchun elektr energiyasi ta'minotining kamida 50 foizi ushbu ob'ektlarda o'rnatiladigan quyosh panellari orqali qoplanishi talab etiladi.

↓ Prezident qaroriga ko'ra

O'zenergoinspeksiya tashkil etildi

Shu yilning 13-fevral kuni davlatimiz rahbari tomonidan "Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, Energetika vazirligi huzurida davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan 357 shtat birligidan iborat Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya (O'zenergoinspeksiya) tashkil etildi.

Quyidagilar O'zenergoinspeksiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi:

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan (aholidan tashqari) yoqilg'i-energiya resurslarini ishlab chiqarish (qazib chiqarish), qayta ishlash, uzatish (tashish), taqsimlash va iste'mol qilish, ularning sifat va miqdor jihatidan saqlanishini ta'minlash sohasidagi qonunchilik hujjatlari hamda texnik jihatdan tartibga solish bo'yicha normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

- elektr, gaz uzatish va gaz taqsimlash tarmoqlariga noqonuniy ulanish, yoqilg'i-energiya resurslarini talon-toroj qilish va noqonuniy iste'mol qilishning boshqa holatlarini, shuningdek, ularni sodir etishga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish va oldini olish;

- bevosita iste'molchilar tomonidan foydalanilgan hamda tegishli hududlar chegarasidagi tarmoqlarga yetkazib berilgan yoqilg'i-energiya resurslari hajmi o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash va bartaraf etish;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan (aholidan tashqari) energetika ob'ektlarida baxtsiz hodisalar va texnologik buzilishlar (avariyalar)ning oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi va uning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini hamda energiya samarador va energiya tejovchi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, shuningdek, energiya resurslarini iste'mol qilish samaradorligining monitoringini olib borish;

- yoqilg'i-energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha iste'molchilar (aholidan tashqari) tomonidan bajariladigan chora-tadbirlarning energiya samaradorligini baholash, shuningdek, mahsulot birligini ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) uchun yoqilg'i-energiya resurslari iste'molining me'yorlari bajarilishi va kelgusida takomillashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari,

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan O'zenergoinspeksiya xodimlari zimmasiga ularning vakolatiga kirmaydigan vazifalarning yuklanishi taqiqlanadi.

Davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar O'zenergoinspeksiya uning zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarini bajarishda har tomonlama ko'maklashishi shart;

O'zenergoinspeksiya zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va boshqa materiallar uning qonuniy talabiga ko'ra bepul taqdim etiladi;

O'zenergoinspeksiya tomonidan yoqilg'i-energiya resurslarini behuda sarflash, ulardan noqonuniy va samarasiz foydalanish holatlarini aniqlash borasida davlat nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq nazorat tadbirlari xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini tekshirish hisoblanmaydi;

O'zenergoinspeksiya xodimlari xizmat guvohnomalari bo'lgan taqdirda, sutkaning istalgan vaqtida iste'molchilarning yoqilg'i-energiya resurslarini hisobga olish uskunalari ko'rsatkichlarini yozib olish va ularning holati, ulanish sxemalari va qurilmalarini ko'rikdan o'tkazish uchun hisobga olish uskunalari, sxemalari hamda qurilmalarini to'sqinlik borib ko'rishga haqli;

O'zenergoinspeksiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasini qarorlari asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'rnatilishini nazorat qiladi va belgilangan ko'rsatkichlarning bajarilishi ta'minlangan taqdirda, ularning mansabdor shaxslariga nisbatan choralar ko'rish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritib boradi.

2023-yil 1-iyuldan boshlab yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan elektr energiyasi hamda tabiiy gazni yetkazib berish bo'yicha shartnomalar elektr va gaz ta'minoti korxonalarining dasturiy ta'minoti yoxud "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali elektron raqamli imzodan foydalangan xolda tuziladi.

PAXTASI QASHQADARYODAN MATOSI KORAZMDAN

Urgutda tayyorlanayotgan milliy ko'rpacha va yostiqlar xorijga ham sotilmoqda

Sarlavhani o'qib, xayolan tikuv fabrikasidagi qizg'in ish jarayonini tasavvur qilgan bo'lsangiz, ajab emas. Ochig'i, biz ham bu natijalarga erishgan tadbirkor bilan uchrashish uchun yo'lga chiqqanimizda manzila salobatli korxonaga yoki fabrikani ko'ramiz deb o'ylagandik. Qalovini topgan 10 sotix hovlida turib ham xorijga mahsulot sotar ekan.

TADBIRLILAR MAHALLASI

Urgut tumani markazidan uncha uzoq bo'lmagan Andak mahallasiga yetib keldik. Tog' etagi, past-balandliklardagi zich qurilgan uylarda qish bo'lishiga qaramay, ish qaynamoqda.

Bu yerning aholisi o'zining mehnatkashligi, ishbilardonligi bilan ajralib turar ekan. Tikuvchilik, tunikachilik, uzumchilik deysizmi, xullas, ular daromad keltiradigan har qanday sohada omadini sinab ko'rishdan qo'rqmaydi.

— To'g'ri, mahallamiz aholisi turli yo'nalishlarda tadbirkorlik bilan shug'ullanadi, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Bekzod Tohirov. - Lekin hududni iqtisodiy rivojlantirish drayveri sifatida tikuvchilik belgilandi. Sababi mahalla xotin-qizlarining asosiy qismi shu ish bilan shug'ullanadi. Qolaversa, yaqin hududlarda tekstil fabrikalari joylashgan bo'lib, ularda ishlayotgan yoshlar daromad qilish barobarida kasbining sir-asrorlarini ham puxta o'zlashtirmoqda. Buning samarasi o'laroq keyingi vaqtda uyda tikuvchilik sexini ochib, mustaqil ish boshlaganlar soni ko'paydi. Hozir bu sexlarda kiyim-kechak, sumka, shuningdek, uy-joy uchun kerakli mahsulotlar tayyorlanib, sotuvga chiqarilmoqda.

"Samarqand ko'rpachalari NAQ" MChJ rahbari Akbar Nuraliyev ana shunday tadbirkorlardan biri. U o'tgan ikki yil ichida respublikamizning 10 ta hududida sotuv nuqtalarini ochishga muvaffaq bo'ldi. Hozir uning mahsulotiga xorijliklar ham qiziqish bildirmoqda.

HAMMASI NIMADAN BOSHLANDI?

— Karantin vaqtida daromadim kamayib, uyda turib pul topish yo'llarini qidira boshladim, - deydi A.Nuraliyev. - Bozorlarni o'rgandim, bugun ko'pchilik ko'rpacha, yostiqlar va ko'rpachalarni ham tayyor holatda sotib olayotgan e'tiborimni tortdi. Xotinim ikkimiz tavakkal qilib, shu yo'nalishda ish boshladik. Boshida xaridor topish oson bo'lmadi, albatta, raqobatchilarimiz ko'p edi. Qo'limiz ishga o'rganib, mahsulotimizning sifati oshib boravergach xaridorlarning o'zi bizni qidirib kela boshladi. Tadbirkorning muvaffaqiyati sababi faqat shu emas. Dunyoning rivojlanayotgan davlatlarida bo'lgan va yerdagi savdo-sotiq jarayoni bilan yaqindan tanishgan Akbar zamonaviy marketing imkoniyatlaridan ham juda unumli foydalanmoqda. Xususan, u o'z mahsulotining reklamasiga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, xaridorlarga bu mahsulotlarni onlayn yoki muddatli to'lov asosida xarid qilishi uchun ham barcha sharoitlari yaratilgan.

— Xalqimiz ko'rpacha to'lov shakllari odatda to'y uchun xarid qiladi, - deydi tadbirkor. — Bilamizki, bu vaqtda xarajatlar ham katta bo'ladi. Shuni inobatga olib, mahsulotimizni muddatli to'lov asosida sotishga qaror qildik. Bundan bir zarar qilmaymiz. Aksincha, xari-

darlarimizning ishonchiga kiramiz. Tabiiyki, ular bizning mahsulotni tanish-bilishlariga ham reklama qilishni boshlaydi. Marketing shunday ishlaydi.

MAHALLA AYOLLARI KASANACHILIK SHAKLIDA ISHGA JALB QILINGAN

Er-xotin boshlagan ish tez sur'atda rivojlanib bordi. Endi ular buyurtmalarni bajarishga ulgurmas edi. Shunda Akbar faoliyatini ortiqcha xarajatsiz yanada kengaytirish yo'lini o'ylab topdi. U mahalladagi ayollarga ish o'rgatib, uyiga xomashyo yetkazib beradigan, tayyor mahsulotni olib ketadigan bo'ldi.

— Ikki yildan beri "Samarqand ko'rpachalari NAQ" MChJ bilan hamkorlikda ishlayman, - deydi tumanning Bunyodkor mahallasida istiqomat qiluvchi tikuvchi Nilufar Sattorova. — Avval boshida ularga shogird tushgandim. Ishni ipidan ignasigacha o'rgatishgach, uyimga alohida tikuv mashinkasini olib berishdi. Har kuni xomashyo keltirib, yarim tayyor ko'rpacha to'lov shakllari olib ketishadi. Bir dona ko'rpacha uchun ishning hajmiga qarab, 10 mingdan 20 ming so'mchaga pul olaman. Mavsumda bir kunda 20-25 tagacha ko'rpacha tayyorlayman.

Bugungi kunda Nuraliyevlar oilasi bilan shu tartibda hamkorlikda ishlovchi 10 tacha xonadon bor. Ularning asosiy qismi Andak mahallasida. Tadbirkor o'tgan yili mahalladagi hokim yordamchisining ko'magi bilan 200 million so'm imtiyozli kredit olib, ularga tikuv mashinkalari hamda boshqa kerakli anjomlarni olib berdi.

Aytish joizki, bir dona ko'rpacha tayyor holatga kelishi uchun besh bosqichdan o'tishi kerak ekan. Kasanachilik shaklida ishlovchi xonadonlarda shu ishning dastlabki uchtasi (matoni o'lchamga qarab bichish, girdiga bezak tikish, astarlik uchun chit qo'yish) bajariladi. Yakuniy ish - paxta solish va qavish tadbirkorning xonadonida amalga oshiriladi. Buning uchun yerdan 5 nafar xotin-qiz doimiy ishga olingan. Bundan tashqari, mavsum(to'y marosimlar ko'p o'tkaziladigan vaqt) da qo'shimcha 15 nafargacha tikuvchi xotin-qiz ishga jalb qilinadi.

— Mutaxassisligim bo'yicha tikuvchi-dizaynerman, - deydi Orzigul Shodiyeva. — Bir necha yil tekstil fabrikalarida ishladim. Uyimga yaqin joyda ish borligini eshitib, shu yerga keldim. Ish hajmiga qarab 2 million so'mgacha maosh olaman. Jarayonda sifatga alohida e'tibor qaratamiz. Shuningdek, yangicha bichim va bezaklar o'ylab topamiz.

AMERIKADAN HAM BUYURTMA BO'LADI

Ayni vaqtda ulardagi mahsulot asosan 4 xil mato - gazlama, baxmal, duxoba va zarfarangdan tayyorlanar ekan. Buyurtma bo'yicha alohida o'lcham olinib, boshqa turdagi matolar ham ishlatilishi mumkin. — Baxmal Buxorodan, gazlama Xorazmdan, duxoba esa Turkiyadan keltiriladi, - deydi Akmal Nuraliyev. — Keyingi vaqtda Xitoyda ishlab chiqariladigan qadimiy zarfarang matosisiga talab oshdi. Paxta ham o'zimizniki emas, Qashqadaryodan olamiz. Sifati yaxshi, narxi unchalik qimmat emas. Ishni boshlagan odam sekin-asta mutaxassis bo'lib borar



BU FAKT!

Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil boshida viloyat bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni 14 278,5 mingtaga yetdi. Bu avvalgi yil bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalarning bosh soni 726,5 mingtaga (5,4 foiz) ko'payganini ko'rsatadi.



SPORT SOHASIDA TALON-TOROJLIKLAR MADANIYAT MARKAZLARIDA SHAROIT YO'Q

Viloyat prokuraturasi sport va madaniyat sohaslarida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat tarmog'i tomonidan 2022-yilda bir qator nazorat tadbirlari amalga oshirildi. Natijada sport sohasidagi qonunbuzilishlar, ularning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida 3 ta taqdimnoma kiritildi. Qonunga zid qarorlarni bekor qilish to'g'risida 12 ta protest keltirilib, 4 nafar shaxs intizomiy va 14 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi, 11 nafar shaxsning buzilgan huquqlari tiklanib, 2 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Xususan, Toyloq tumani sport maktabida xodimlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi ahvoli talov asosida nazorat tartibida tekshirilganda ishga qabul qilinmagan hamda sport maktabida ishlamagan fuqarolarga 125 million 647 ming 768 so'm ish haqi yozilib, o'zlashtirilgan. Holat yuzasidan viloyat prokuraturasi tomonidan Toyloq tumani sport maktabi mansabdor shaxslari va boshqarlarga nisbatan Jinoyat kodeksining 167-moddasi (O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish) 2-qismi "a", "g" bandlari bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Madaniyat va san'at sohasida o'tkazilgan tekshirishlar natijasida qonunbuzilishlar, ularning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida 4 ta taqdimnoma kiritilgan. Qonunga zid qarorlarni bekor qilish to'g'risida 7 ta protest keltirilib, 5 nafar shaxs intizomiy va 1 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi, jiddiy qonun buzilish holatlarini yuzasidan 2 ta jinoyat ish qo'zg'atilgan.

Masalan, Narpay tumani madaniyat bo'limi moddiy javobgar shaxslari o'z mansab mavqeini suiiste'mol qilib, o'zganing ko'p miqdordagi mol-mulkini o'zlashtirib, rastrata yo'li bilan talon-toroj qilgan.

Viloyatda aksariyat madaniyat markazlarining binolari hamda yaratilgan shart-sharoitlar talab darajasida emas. Xususan, madaniyat markazlarining 65 tasi (50,7 foiz) 1990-yilga qadar qurilgan, ma'nan eskirgan binolarda joylashgan. 15 ta madaniyat markazi o'z binosiga ega emas, 7 tasi avariya holatiga kelib qolgan va 18 tasi ta'mirlanib.

Hududiy madaniyat markazlari o'tkaziladigan tadbirlarga tekin jalb qilinmoqda. Tuman va shahar hokimliklari, tashkilot va muassasalar bilan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha birona shartnoma tuzilmagan. Vaholanki, Prezidentimizning "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonida Madaniyat vazirligi va boshqa davlat organlari tomonidan davlat tadbirlari va boshqa tadbirlarga ijodkorlar va ijrochilarning jamoatchilik asosida jalb qilinishiga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

Madaniyat markazlari tomonidan to'garaklar va pulli asosda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Jumladan, 78 ta madaniyat markazi tomonidan pulli asosda birorta madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etilmaganligi oqibatida daromad olinmagan.

Dilmurod SAYIDQULOV,
viloyat prokurorining o'rinbosari.



ekan. Muhimi, izlanishdan to'xtaganimiz yo'q. Iste'molchilarning ta'bige qarab yangiliklar qilyapmiz, rejalarimiz ham katta.

Ta'kidlanganidek, oilaviy korxonaga o'tgan ikki yil ichida respublikamizning 10 ta hududida savdo nuqtasini ochishga muvaffaq bo'ldi. Hozir Samarqand ko'rpachalari o'zimizning shahar va tumanlardan tashqari, Toshkent, Navoiy hamda Namangan viloyatlarida ham sotilmoqda. Qahramonimizning aytishicha, o'tgan yili u Rossiya hamda AQShga buyurtma asosida mahsulot sotishga erishgan. Biroq logistikadagi muammolar sababli milliy ko'rpacha va yostiqlarning to'laqonli eksportini yo'lga qo'yish imkonini bo'lmaypti.

TADBIRKORLAR NIMADAN NOROZI?

Afsuski, bu tadbirkorni o'ylantirayotgan yagona muammo emas. Biz Akbar Nuraliyev xonadoniga kirganimizda ish to'xtatilgan, ishchilarning bir qismi uyiga ketgan edi. Sababini so'raganimizda hozircha elektr energiyasi yo'q, xonalarni istish va yoritish muammo bo'lyapti, degan javobni oldik. Avval boshida bu masalaga unchalik e'tibor bermadik. Sababi respublikaning barcha hududida elektr energiyasi iste'moliga cheklor kiritilgan bir vaqtda Urgutda ham "chiroq" o'chishi tabiiydir. Ammo mahalla raisi bilan uchrashganimizda vaziyat biz o'ylagandan ancha og'ir ekanligi ma'lum bo'ldi.



— Mahallamiz hududi gazlashtirilmagan, uylarimizni o'tin, ko'mir va elektr energiyasi yordamida isitamiz, - deydi Andak mahallasai raisi Rahimboy Vohidov. — To'g'ri, suyultirilgan gaz ballonlarini berishgan. Ammo ularni o'z vaqtida to'ldirib berishmaydi. O'tin va ko'mirning narxini o'zingiz bilasiz. Yagona ilinjimiz elektr energiyasidan. Biroq uning ham bir kunda 4-5 soatgina berishadi. Mahallamizdagi tadbirkorlar elektrsiz ishi to'xtab qolganidan, zarar qilyotganidan shikoyat qilyapti. Murojaatlarimiz natijasida esa haligacha ko'rganimiz yo'q.

Biz mahalla ko'chalarida yurib, aholining fikrini o'rganishga harakat qildik. Ular ham mahalla oqsoqoli aytgan gaplarni tasdiqlashdi. Elektr energiyasidagi tartibsiz va uzoq muddatli o'chishlar sababli hatto qo'l telefonlarimizni quvvatlantirishga ulgurmaymiz, deydi ba'zilar. Bunisi mayliku-ya, lekin 3 ming 400 nafar aholi istiqomat qiladigan mahallaning 70 foiz xonadoni ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan ekan. Ular toza suvni hovlisida artezian qudug'i bor 3-4 ta xonadondan tashib keladi.

Guvohi bo'lganimizdek, hududda ishbilarmonlar ko'p, ammo sharoitning yo'qligi, aniqroq aytganda, kommunal sohadagi muammolar ularga faoliyatini yanada kengaytirish, daromadini oshirish imkonini bermaypti. Mahalladagilar "Balki shu maqoladan keyin mas'ullar bizga ham e'tibor berishar", deb umid bildirishdi. To'g'ri-da, gazi yo'q, ichishga suvi yo'q, "svet"ning tayini yo'q ularlarda ishonch nima qilsin. Ular faqat umid qiladi. Bu vaziyatda ishbilarmonlar ham mahallasini obod qilishni, korxonalar qurishni emas, ko'proq pul topib, yaxshiroq joylarga ko'chib ketishni o'ylaydi, nazarimda. Ular qachonki tizimga ishonasa, atrofini, mahallasini obod qilishni boshlaydi.

Xullas, biz Andakda ko'rgan va eshitganlarimizning asosiy tafsilotlari bilan o'rtoqlashdik. Maqola tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlar uchun yaxshi g'oya sifatida, mas'ullarga esa "signal" sifatida xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Asqar BAROTOV,
Fazliddin RO'ZIBOYEV (surat).

2022-yil 15-dekabr kuni Shavkat Mirziyoyev raisligida tadbirkorlik va sanoatni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda bugungi og'ir vaziyatda elektr va tabiiy gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanishlar, o'g'irliklar davom etayotgani, bunga joylardagi rahbarlar befarq bo'layotganiga chidab bo'lmaydigan qayd etilib, bu boradagi ishlarini jadallashtirish maqsadida mutasaddirlarga ikki oy davomida favqulodda rejimda ishlashga topshiriq berilgan edi.

MUAMMOLARGA O'ZIMIZ HAM SABABCHI

Ularni tizimli hal qilish lozim

Bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida davlat rahbari huzurida 6 fevral kuni energiya ta'minoti sohasidagi nazoratning vertikal tizimini joriy etish, jumladan, elektr energiyasi va tabiiy gazni yetkazib berish va tarmoqlarga ulanishda huquqbuzarliklarga qarshi kurashni kuchaytirish va tartib-intizomni ta'minlash yuzasidan nazorat tizimini tartibga solishga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda energiya yetkazib berish va hisob-kitob tizimidagi muammolar tanqidiy tahlil qilindi.

Ushbu videoselektor yig'ilishidagi topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Samarqand shahar Xalq qabulxonasi, 2-sektor rahbari, Samarqand shahar elektr tarmoqlari korxonasi va boshqa mas'ul tashkilot rahbarlari ishtirokida ishchi guruh tuzildi.



Tahlihlarga ko'ra, yanvar oyida Samarqand shahar aholisidan Prezident virtual va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlar soni 1939 tani (2022-yilda 1590 ta) tashkil etmoqda. Murojaatlarning 317 tasi elektr energiyasi

(2022-yilda 111 ta), 243 tasi gaz ta'minoti (2022-yilda 61 ta) bilan bog'liq. Ushbu raqamlar ta'minot sohasida muammolar ko'pligini ko'rsatib turibdi.

Ishchi guruh tomonidan shahardagi Qo'shbaqqolli mahallasidagi xonadonlar va ijtimoiy ob'yektlardagi qarzdorlik hamda elektr energiyasiga noqonuniy ulanish holatlari o'rganilganda bir qator qonunbuzilish holatlari aniqlandi.

Jumladan, mahallaning Usta Umar Jo'raqulov ko'chasidagi novvoyxonaning 3 million 800 ming so'm, Zehniy ko'chasi 35-uyda yashovchi fuqaroning 18 million so'm, Cho'pon ko'chasi 54-uyda yashovchi fuqaroning 1 million 500 ming so'm, Davlatshoh Samarqandiy mahallasi Minsk 1-tor ko'chadagi mebel ishlab chiqarish sexi-ning 10 million so'm qarzdorligi borligi aniqlanib, tarmoqdan uzildi.

Qo'shbaqqolli mahallasi Usta Umar Juraqulov ko'chasida yashovchi fuqaro 5 million so'm, Davlatshoh Samarqandiy mahallasida yashovchi fuqaro 15 million so'm qarzdorligi sababli tarmoqdan uzib qo'yilgan bo'lishiga qaramasdan, o'zboshimchalik bilan tarmoqqa noqonuniy ulanib olganligi aniqlandi.

Elektr energiyasidan ko'p miqdorda qarzdorlik hamda tarmoqdan noqonuniy foydalanish respublika budgetiga va energiya resurslarini yetkazib berish tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oqibatda aholi orasida norozilik kayfiyati uyg'orinishiga va murojaatlar soni keskin oshishiga sabab bo'ladi.

Shu bilan birgalikda, Xalq qabulxonasi va Samarqand shahar elektr tarmoqlari korxonasi bilan hamkorlikda xonadonlarga o'rnatilgan hisoblagichlarning soni holatida ishlayotganligi, qarzdorlik hamda tarmoqqa noqonuniy ulanganlik holatlarini aniqlash maqsadida xatlov o'tkazilmoqda.

X.TURDIYEV,
Samarqand shahar Xalq qabulxonasi yetakchi mutaxassisi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi huzuridagi Jamoat fondining 2022-yildagi faoliyati to'g'risida

HISOBOTI

2022-yilda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi huzuridagi jamoat fondining ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan Dasturiga muvofiq, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini nazorat qilish maqsadida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya qilish va jamiyatni erkinlashtirishdagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash borasida izchil va tizimli ishlar amalga oshirildi.

Fondning hisobot davridagi faoliyatiga shahar:

2022-yil viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida jami 1 milliard 736 million 209 ming so'm mablag' sarflandi.

Qonunchilik normalari, jamoat komissiyasining yig'ilish qarori bilan quyidagicha taqsimlandi:

Davlat grantlariga - 824 million so'm yoki jami mablag'ning 48 foizi;

Davlat subsidiyalari - 440 million so'm yoki jami mablag'ning 25 foizi.

Shuningdek, jamoat fondi ijrochi devoni va xizmat ko'rsatish xodimlarining oylik ish haqi hamda "Nodavlat notijorat tashkilotlari va Do'stlik uyi" binosini saqlash turish xarajatlari 470.2 million so'm yoki umumiy mablag'ning 27 foizini tashkil etdi.

Ushbu mablag'larni boshqarish bo'yicha vasiylik Kengashi vazifasi xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasiga yuklatilgan bo'lib, xalq deputatlari viloyat Kengashining 2021-yil 7-maydagi qaroriga ko'ra, komissiya tarkibi shakllantirildi.

Hisobot davrida muhim ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat grantlarini ajratish uchun to'rtta tanlov o'tkazildi.

Davlat grantlari nimalarga yo'naltirildi?

Jamoat komissiyasining 2022-yil 25-fevraldagi qarori bilan "Inson qadri-ni ulgurilash va faol mahalla yili" Davlat dasturi ijrosini ta'minlashda ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadida 1 martdan 31 martgacha bo'lgan muddatda e'lon qilingan davlat grantining 1-tanloviga 23 ta fuqarolik jamiyati institutlarining 1 milliard 150 million so'mlik 23 ta loyihalari qabul qilindi.

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasining 2021-yil 7-maydagi qaroriga asosan, 6 ta loyiha 300 million so'mga moliyalashtirildi.

2022-YIL UCHUN YILLIK MOLIVYI XISOBOTI

(buxgalteriya balans)

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	2022-yil mln.so'm	Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	2022-yil mln.so'm
Aktiv			Passiv		
<i>Joriy aktivlar</i>			<i>O'z mablag'larining manbalari</i>		
Aylanma aktivlarning yakuni	390	626522,4	O'z mablag'larining yakuni	480	626522,4
Balans aktivi bo'yicha jami	400	626522,4	Balans passivi bo'yicha jami	780	626522,4

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahridagi "ALI NUR GLOBAL SERVICES" xususiy korxonasi (STIR: 303502511) o'z nomini va tashkiliy-huquqiy shaklini "MIRONSHOX AVTO PLUS" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartiradi. "MIRONSHOX AVTO PLUS" mas'uliyati cheklangan jamiyati "ALI NUR GLOBAL SERVICES" xususiy korxonasi barcha huquq va majburiyatlarini bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 1-uy, 11-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Abduramanov Fevzi Ibrainovichga (2005-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasida marhum Primova

Risolatga (2020-yil 25-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Kasimov Baxronga (2019-yil 7-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasida marhum Samodov Sobir Rashidovichga (2016-yil 1-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Yusupov Mutar Satarovnaga (2021-yil 1-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Yusupova Mutar Satarovnaga (2021-yil 1-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Yusupov Islamga (2021-yil 1-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Yusupova Mutar Satarovnaga (2021-yil 1-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Maxmudov Kilichxon Kamolovichga (2009-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV ASOSIDA

ISHGA QABUL E'LON QILADI

KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMIGA:

- Agrotexnologiyalar, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash-tirish va avtomatlashtirish kafedrasiga;
- O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish kafedrasiga;
- Tabiiy fanlar kafedrasiga;
- Xususiy zootexniya kafedrasiga;
- Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi kafedrasiga;
- Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi kafedrasiga.

KAFEDRA PROFESSORI LAVOZIMIGA:

- Yaylov chorvachiligi, qorako'chilik, asalarichilik va ipakchilik kafedrasiga.

KAFEDRA DOTSENTI LAVOZIMIGA:

- Agrotexnologiyalar, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash-tirish va avtomatlashtirish kafedrasiga;
- Axborot texnologiyalari kafedrasiga;
- Veterinariya-sanitariya ekspertizasi kafedrasiga;
- Tabiiy fanlar kafedrasiga (kimyo fani);
- Tabiiy fanlar kafedrasiga (fizika fani);
- Xususiy zootexniya kafedrasiga;
- Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasiga;
- Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va patologik anatomiya kafedrasiga.

KAFEDRA KATTA O'QITUVCHISI LAVOZIMIGA:

- Agrotexnologiyalar, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash-tirish va avtomatlashtirish kafedrasiga (agrotexnologiyalar);
- Agrotexnologiyalar, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash-tirish va avtomatlashtirish kafedrasiga (ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash-tirish);
- Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar kafedrasiga;
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasiga (ijtimoiy-gumanitar fanlar);
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasiga (jismoniy madaniyat va sport);
- Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasiga;
- O'zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasiga;
- O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish kafedrasiga;
- Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish kafedrasiga;

10. Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasiga;

11. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi kafedrasiga;

12. Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va patologik anatomiya kafedrasiga;

13. Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar kafedrasiga.

KAFEDRA ASSISTENTI LAVOZIMIGA:

- Veterinariya jarrohligi va akusherlik kafedrasiga;
- Veterinariya farmatsevtikasi kafedrasiga;
- Veterinariya-sanitariya ekspertizasi kafedrasiga;
- Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasiga;
- Ichki yuqumsiz kasalliklar kafedrasiga;
- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi kafedrasiga;
- Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasiga;
- Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish kafedrasiga;
- O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish kafedrasiga;
- Farmakologiya va toksikologiya kafedrasiga;
- Xususiy zootexniya kafedrasiga;
- Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya kafedrasiga;
- Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi va zoogiyena kafedrasiga.

KAFEDRA O'QITUVCHISI LAVOZIMIGA:

- Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasiga (ijtimoiy-gumanitar fanlar);
- Tabiiy fanlar kafedrasiga;
- Xorijiy tillar kafedrasiga (ingliz tili);
- Xorijiy tillar kafedrasiga (nemis tili).

Hujjatlar (ariza, shaxsiy vараq, 2 dona fotosurat, tarjimai hol, oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi va unvonlari haqidagi diplomlar nusxalari, oxirgi marta malaka oshirganligi to'g'risidagi hujjat, ilmiy ishlar ro'yxati, xorijiy tillar kafedrasiga uchun "C1" darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikat) ushbu e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy muddat ichida qabul qilinadi.

Murojaat uchun manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy, xodimlar bo'limi. Telefon: +99866-234-93-73.

TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARI RAHBARLARI VA HISOBCHILARI DIQQATIGA!

1-KB shakli yillik mikrofirm va kichik korxonaning 2022-yil uchun hisobotini (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022-yil 16-noyabrda 23-mb-son qarori, 97-ilovasi) 2023-yil 27-fevraldan kechiktirmay, xato va kamchiliklarsiz (my.stat.uz interaktiv xizmatlar portali) eStat 4.0 tizimi orqali elektron ko'rinishda taqdim etishlarini so'raymiz.

Hurmatli tadbirkor! Hisobotni o'z vaqtida jo'natishni unutmang!

Sizga yaratilgan imkoniyatdan foydalaning, vaqtinigini qadrlang!

Elektron hisobot - qulay, tezkor va samarali.

Murojaat uchun telefonlar: +99866-235-45-90, 235-42-95, 231-12-58.

VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI.

o'ziga etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisrovovna notarial idorasida marhum Xisrovovna Zivar Kudratovnaga (2021-yil 29-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisrovovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriyevna notarial idorasida marhum Safarova Gulsara Ruziyevnaga (2021-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirnova notarial idorasida marhum Safarov Anvar Narimanovichga (2021-yil

31-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirnova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 108-uy.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xolmurodov Anvar Xolmurod o'g'li notarial idorasida marhum Ergashev Baxodir Yusufovichga (2022-yil 30-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xolmurodov Anvar Xolmurod o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Berdimurodov Baxrom Sultanovichga (2021-yil 22-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahridagi Olimova Mukhabbat Raximovna yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 41608843860037) dumaloq muhi va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand qishloq xo'jalik kollejidan 2012-yilda Djalilov Azamat Xakimovich nomi-ga berilgan ro'yxat raqami 7065, K 2534598 raqamli diplom va uning ilovasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

BEKOR QILINADI

Fuqaro Bahriyev Shaxruz Shuxratovichga qarashli Samarqand shahri "Buxori" MFY, Bunyodkor ko'chasi, 16-uyning 2021-yil 30-sentabrda tuzilgan 202102255002388 raqamli oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Fuqarolar Bobobekov Abdilatif Abdinabievich va Asadov Ashrafrafl o'rtasida 2022-yil 25-fevralda Samarqand shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 19-uy-joy uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Alieva Lola Zoirnova notarial idorasidan tasdiqlangan 202201714000965 raqamli oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi va ushbu uning kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi Olimova Mukhabbat Raximovna yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 41608843860037) dumaloq muhi va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand qishloq xo'jalik kollejidan 2012-yilda Djalilov Azamat Xakimovich nomi-ga berilgan ro'yxat raqami 7065, K 2534598 raqamli diplom va uning ilovasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

G'OLIB VA MAG'LUB BOBUR

“Boburnoma”da muallif ruhiy holati tasviri

“Boburnoma” – psixologik kechinmalar olami. Unda nafaqat tarixiy voqealar silsilasi, balki shoir tuyg'ulari, hayot haqiqatlarini tan olish, g'alabadan masrurlik, mag'lubiyat armonlari, ko'ngil kemtiklari, inson manzaralari va qalb isyonlari aks etgan. Asarda o'zgaruvchan va beqaror siyosiy muhit, mag'lublikdan g'oliblik shohsupasiga ko'tarilish va yana mag'lublikning achchiq alamini tortish, o'kinch, quvonch, shodlik tuyg'ularining o'rin almashishi mohiro-na ochib berilgan.

Murakkab holatlarni tasvirlash, shaxs ruhiyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni izohlash Boburning yuksak badiiy mahoratidan dalolat beradi. Asarda katta-kichik personajlar, davr sultonidan oddiy inson ruhiyatigacha qalamga olingan. “Boburnoma”dagi qahramonlarga oid badiiy tasvirlardan biz XVI asrda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar, toj-taxt uchun kurash, shohlar-ning dunyoqarashi, mulkka egalik qilish va mulk bo'lish tarixi, oqibati, fitna-nifoqlar teran va keng qamrovli, tahliliy uslubda tasvirlanganiga guvoh bo'lamiz.

“Boburnoma”da yirik tarixiy shaxslar: Shay-boniyxon, Husayn Boyqaro, Xusravshoh, Boqi Chag'oniyoniy, Qosimbek, Shohbegim va boshqa yirik tadqiqot ob'ektlari o'z biografiasiga ega. Ular tahlilida ham g'olib va mag'lublik holatlariga alohida o'tiribdi. G'oliblik nashidasidan sarxush gene-ratsiyasi va degradatsiyasining bir-biriga tutashishi va favqulodda ayrilishi tegishli tasniflar orqali aks ettiriladi.

Shu o'rinda “Boburnoma”da zikr etilgan 1494-1495-yillar voqealariga nazar tashlasak. Yosh shahzoda Bobur birinchi marta Samarqand taxtini egallaydi. Uning quvonchi cheksiz. U bobosi Amir Temur poytaxt qilgan va buyuk saltanatga asos solgan mashhur shahar – Samarqand taxtida o'tiribdi. G'oliblik nashidasidan sarxush shahzoda “Boburnoma”da yozadi: “Samarqand taxtig'a o'lturg'och, Samarqand beklarini burun-

gudek - o'q rioyat va inoyat qildim. Bizning bila bo'lg'on beklarni ham faroxo'ri hollarig'a yarasha tarbiyat va shafqat qildim”.

Ming afsuski, g'oliblik sururi uzoq davom etmaydi. Bobur atrofidagilarning, ayniqsa, Uzun Hasanning xiyonati tufayli Samarqand qo'ldan chiqadi. Ilojsiz Boburni beklar va lashkarlar tashlab keta boshlaydi. Kechagina g'olib Bobur hayal o'tmay, mag'lub shahzodaga aylanadi, bu haqda u shunday yozadi: “Cherik elining o'ljasi tugandi. Samarqandni olg'onda Samarqand andoq xarob erdikim, madad va tuxm va taqovig'a ehtiyoj bor edi. Chi joyi ulkim, kishi andin nima ola olg'ay”.

Oradan uch oy ham o'tmasdan g'olib Bobur ruhiyatini tushkunlik, mag'lublik alomatlari chulg'ab oladi. Bobur Samarqandni tashlab, Andijonga yo'l oladi. Bu yerda esa uni fitna kutardi. Bu safar tog'asi Ali Do'st “Bobur og'ir kasal”, deb Andijon muxoliflari bilan kelishib, qal'a eshigini Bobur va uning yaqinlari uchun yopadi. Bobur o'zining bu paytdagi ruhiy holati naqadar og'irligini quyidagicha tasvirlaydi: “Andijong'a bo'la Samarqandni ilikdan berduk. Andijon ham ilikdan chiqmish edi. Bizga 'g'ofil az injo ronda va az onjo monda' degandek bo'ldi. Bisyor shaq va dushvor keldi. Ne uchunkim, to podshoh bo'lub erdim, bu nav' navkardin va viloyatini ayrilmaydur erdim, to o'zumni bilib erdim, bu yo'sunluq ranj va mashaqqatni bilmaydur erdim”.

Bobur ushbu ruhiy holatini juda aniq, har



tomonlama yorqin tarzda ifodalamoqda. Unda afsus va nadomat, o'z qadriga achinish va xiyonatkorlarga nafarat, taqdirdan o'kinish, yordamga kelmagan, aksincha, dushmanlariga yon bosgan yaqinlariga hayrat, savoliga javob topmagan yosh shahzoda – Boburning tushkun holati mavjud.

Oradan qisqa muddat o'tgach, Bobur Samarqandni ikkinchi marta egallaydi... Yana uni qo'ldan berib, ilojisiz bir ahvolda Andijonga yuz tutadi. “Ota viloyatikim, ikki yilg'a yovqulashib erdikim, ilikdin chiqib edi. Tengri inoyati bila zulqa'da oyida sana 904 da yana muyassar va musaxxar bo'ldi. Sulton Ahmad Tanbalkim, Jahongir Mirzo bila qatilib, O'sh sari tortib edi, O'shaq kirgach, O'shda ham qizilovq, qoratayog qilib zarbi rost ura-ura O'shdin qovlab, qo'rg'onni bizning uchun saxlab, bizga kishi yibordilar”.

“Boburnoma”da faqat muallif timsolidagi g'oliblik va mag'lublik ruhiy holati almashinib turmaydi, uning qariyb barcha personajlari uchun bu tipik hol. Ammo Bobur o'z asarida

davr va zamonga munosabatini izhor etadi, atrofini qurshab olgan shaxslar psixologiyasidagi o'zgarishlarni voqealar xronologiyasida tartib bilan tahliliy shaklda keltiradi. Ko'rinadiki, “Boburnoma”ni tadqiq etishda ushbu xususiyatlar davrning ob'ektiv tarixiy voqealarini inson shaxsi, tabiati, ichki dunyosi ta'sirida yuz berishi mumkin bo'lgan jarayonlarni chuqur o'rganishga, mohiyatini anglashga, bu borada yanada aniq xulosalar chiqarishga muayyan asos bo'lib xizmat qiladi.

Aytish kerakki, Bobur qisqa umri davomida g'oliblik martabasiga ko'p marta sazovor bo'lsa-da, mag'lubiyat azoblarini ham munosib qarshi oldi. Uning ruhiy kechinmalari mana bu satrlarda yanada yorqinroq ifoda etilgan: Hol ul edikim, hikoyat ettim, Gah shukru gahe shikoyat ettim.

Isroil SULAYMONOV, SamDU mumtoz adabiyot tarixi kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori.

O'qing, qiziq

Ikkinchi jahon urushida Berlinga ittifoqchilar tashlagan birinchi bomba faqat hayvonot bog'idagi filni o'ldirgan, xolos.

Agar chayonga spirtli ichimlik tomizsa, u darhol aqlidan ozadi va o'zini o'ldiradi.


Bundan 300 yil muqaddam misrliklar o'rtaacha 30 yil umr ko'rgan.

Birinchi shtrix-kodga ega mahsulot - Wrigley saqichi bo'lgan.

Timsohning ko'zlarini bossangiz, u darhol og'zini ochadi.

Og'irligi bo'yicha taqqoslangan, gamburger avtomobildan qimmatroq turadi.

Oyning hajmi Tinch okeanidagi suv hajmiga teng.



Chilining Atakama cho'lidagi Kalama shahrida hech qachon yomg'ir yog'magan.

Tipratikanning yuragi bir daqiqada 300 marta uradi.

Agar Coca-Cola tarkibiga hech qanday bo'yoq qo'shilmasa, u yashil rangda bo'ladi.

1667-yilda amalga oshirilgan ilk qon quyishida doktor Jan-Batist Denis o'zining yosh bemoriga 250 millilitr qo'zi qonini quyan. Hammani hayratda qoldirib, bemor tuzalib ketgan.

Qo'ng'iz - olma, ari - qarag'ay yong'og'i, qurt - qovurilgan go'sht ta'miga o'xshaydi.

1830-yillarda ketchup dori sifatida sotilgan.

Oshqozonning shilliq qavati har ikki haftada yangilanadi.

O'ljaning 90 foizini urg'ochi sher olib keladi.

Pul qog'ozdan emas, paxtadan yasaladi.

Chivinlarga qarshi vosita hasharotlarni qochirmaydi, balki sizni ulardan yashiradi. Vosita chivinning sezish tizimini bloklaydi va u "ozuqa"si qayerda ekanligini tushunmaydi.

Internet ma'lumotlari asosida G.XOLDOROVA tayyorladi.

Yorug' kechinmalar, nekbin qarashlar shoiri

O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron ijodida xalqparvarlik, yurtsevarlik, tarix mavzulari asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek, uning sevgi, do'stlik, mehr kabi muqaddas tuyg'ular mavzu qalbidan olingan she'rlari ham bir talay. Uning dastlabki to'plami “Qadrdon quyosh”ga kiritilgan “Men ertaga”, “Sayhonlikdagi xilvat chetida”, “Oppoq edi boshda bu dunyo”, “Bolaligim o'g'irlab”, “Jiyda gul”, “Dunyoning bezavol tongida”, “Qor yog'ayotgan oqshom” kabi she'rlari shoir “men”ini ko'rsatuvchi, sof va samimiy tuyg'ular ifodasi sifatida yuzaga kelgan namunalaridir.

1979-yil ilk to'plamini nashr ettirgan-da Xurshid Davron yigirma yetti yoshda edi. To'plamga kiritilgan namunalar chop etilishidan avvalroq yozilganligini nazarda tutsak, she'rlar tahlilida lirik qahramon va uning kechinmalarini aniqroq his qilish, talqin eta olamiz. Shoirning ilk to'plamidagi she'rlari badiiyatini ko'rsatib turuvchi asosiy belgi - ma'sumiyat va samimiylik. Uning to'plamga kiritilgan aksariyat she'rlarida bolalikni qo'mash o'z ifodasini topgan.



Nisbatan qisqa ushbu she'rda ruhiyatning tushkun lahzalaridagi g'amgin holat, dard ifodalangan. She'r yakunida-gi ketmoqning muhabbatga o'xshatilishi nihoyatda betakror bo'lib, bahsga hojat qoldirmas darajada quyma satrni yuzaga keltiradi. Haqiqatan ham, muhabbat qaytmas tuyg'u, bu xalqimizda “qolgan ko'ngil topilmas”, deya e'tirof etiladi.

Haqiqiy she'rda yakun qat'iy bo'ladi, shoir aytmoqchi bo'lgan asosiy “gap”ini oxiriga qoldiradi-yu, yuqoridagi barcha satrlar, ulardagi jamiki so'zlar ana shu “portlash”ni yuzaga keltirish uchun uyushtiriladi go'yo. Shoirning “Uchib boraman qushlar bilan” to'plamiga kirgan mediativ lirikasida mansub quyidagi she'r ham e'tiborga molik.

Sening xonangda chiroqlar kular, Sening xonangda yashar kulgular.

Sening darchangdan boshlanar osmon, Mening darchamdan boshlanar zamin.

Sening gullaring bayroqdek yonar, Mening gullarim yuzida qon yo'q.

Sening hovlingni itlar qo'riqlar, Mening hovlimning devori ham yo'q.

Sen o'z sevgingni qilmaysan oshkor, Mening sevgimni qushlar ham bilar.

She'r ikkiliklar shaklida ifodalangan bo'lib, unda boshdan oyoq qiyos usuli orqali oshiq o'zini yor bilan taqqoslaydi va turli she'riy san'atlarni qo'llaydi: chiroqlar kular, yashar kulgular (jonlantirish), boshlanar osmon-boshlanar zamin, bayroqdek yonar - yuzida qon yo'q, itlar qo'riqlar - devori ham yo'q, qilmaysan oshkor - qushlar ham bilar (qarshilantirish). Bunday usul an'anaviy bo'lib, she'riyatda uchraydi: “Sen yaxshi-yu men yomon” (xalq qo'shig'i) “Barcha shodlik senga bo'lsin, bor sitam zorlik menga (E.Vohidov) kabilar ham shunday nazm namunalaridir. Shoir Xurshid Davron ushbu an'anani muvaffaqiyatli davom ettirgan holda yangi hislar, yangi ramzu timsollar bilan she'r yaratadi. Bunda ham yakun nihoyatda ohorli: oshiqning ishqini hamma bilishi “qushlar ham bilar”, deya shoirona ifodalana. Bunday sirning oshkorligi oshiqning qiyofasini ham ko'z o'ngimizda jonlantirib yuboradi.

Shoirning muhabbat mavzusidagi she'rlarida tuyg'ular, qayg'ular asil. Ular bizga halli olis qishlog'imizdagi sodda munosabatlarni eslatadi, xotiramizda qachondir his qilgan va turmush tashvishlari tufayli unutilgan pokiza dardlarimizni ifoda etadi.

Shoirning yaqinlariga, onasi, otasi, singlisi va boshqalarga bo'lgan mehr tuyg'usi ifodalangan she'rlar ham bir talay bo'lib, bunday she'rlarda ijodkorning hayot falsafasini teran tushungan holda o'g'illik, akalik majburiyatlarini bajarishda ba'zan o'zini aybdor sezishi, g'amxo'rlik, sog'inch tuyg'ularining yorqin ifodasini sezamiz. Bunday she'rlardagi lirik qahramon kamtarin, tortinchoq va mulohazali inson, ya'ni shoirning o'zi.

Yuqorida Xurshid Davronning mediativ lirikasi asosan uning yoshlik paytlariga, ijodining dastlabki damlariga xosligini aytib o'tdik. Bu yillarda shoir she'riyat mavzulari u qadar keng qamrovli bo'lmisdan, keyinchalik uslubining xarakterli jihatini ko'rsatgan tarixiy mavzular ham endigina ko'rina boshlagan edi.

F.BO'RIYEVA, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi.

To'qilmagan hikoyalar

1974-yilning kuzi. Paxta yig'im-terimi mavsumida nurotaliklar, shu jumladan, maktab o'quvchilari Payariq tumaniga safarbar etildi. Maktabimiz jamoasi Maniobod qishlog'iga joylashdi.

Ziyorat

Kunlar o'tib, shundaygina yonimizda ulug' ziyoratgoh borligini, u Imom Buxoriy nomi bilan atalishini va qabri mavjudligini eshitdik. Eshittuvchilar bu zot haqida hech narsa bilmagani kabi mahalliy aholi ham deyarli shu darajada edi.

O'sha yillarda Nurota tumani xalq ta'limi bo'limiga rahbarlik qilgan Ochilboy Navro'zov yashash sharoitimiz bilan tanishgani Maniobodga keldi. Navro'zov paytini topib, direktorimiz Istam Boboyorovdan ziyoratgoh haqida surishtirdi. Qisqasi, Navro'zovning asl niyati ziyorat ekanligi anglashildi. Ayrim mulohazalardan keyin Imom Buxoriyning 1200 yilligi tantanali o'tkazilganligi, unga 28 davlatdan mehmonlar tashrif buyurgani, shundan buyon darvoza va eshiklari barcha uchun ochiq-igiga to'liq ishonch hosil qilgach, ikkilanmay ziyoratga o'tlanishdi. Ularga tarix fani o'qituvchisi Hayit Isломov va men qo'shildik.

Ziyoratgohdan ancha narida ulovdan tushib, ikki tomoniga gul ekilgan yo'ldan naqshin yog'och darvozogacha piyoda bordik. Darvoza-ning har ikki tomonidagi lavhadan arabcha va o'zbekcha harflarda “Imom al-Buxoriy” majmuasi, degan yozuvni o'qib, “Imom bo'lgan ekanlar”, degan tushunchada ichkariga kirdik.

Majmua xodimlaridan biri tahorat olishimiz lozimligini eslatdi. Bahridin Rustamov bu masalada “ta'lim” berdi va qabrlariga ro'baro' bo'ldik. Shu yerda xizmat uchun o'tirgan majmua xodimlaridan keksaroq bir otaxon Qur'on tilovat qildi. Duodan keyin atrofini tomosha qilishni boshladik. Qabrlari ustiga qurilgan maqbara devorida ziyoratga o'tlanishni ramka ichidagi yozuv e'tiborimizni tortdi. Undan to'liq nomlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardizba ekanligini o'qidik. Ammo nomlari Muhammad, otalari Ismoil ekanligini aytib berishgandan keyin bilib oldik.

Lavhada “Hadis ilmining peshqadami”, degan yozuv ham bor edi. “Hadis” qanaqa ilm: bir-birovimizga savol berdik. Birov bir narsa deya olmadi. Bizning gumrohligimiz darhol sezildi, ammo shu yerda tilovat qilib turgan otaxon ham “bilmasligini” bo'yiga oldi va qisq ko'zlarini yarim yumib, “domla bilsalar kerak”, deganicha bizdan uzoqlashdi... Domlanning ism-shariflari Usmonjon Rahimjonov ekan. Xizmat safarlarida ekanligi sababidan uchrasholmadik. Savol ham javobsiz qoldi... Boshqalarni bilmadim-u, men 1990-yilda Toshkentda “Fan” nashriyotida chop etilgan “Axloq-odobga oid hadis namunalari” kitobchasini o'qib, undan keyingina, oradan o'n olti yil o'tib, savol javobini topganday bo'ldim... Qarangki, shu ziyoratda ishtirok etgan ma'rifat va ma'naviyat vakillari edik...

Ha, u yillar bu kunlarga o'xshamas edi...
Suyudiq Mustafo NURATOIY.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

18-FEVRAL
O'ktam ARIPOV – 1951-yil Samarqand shahrida tug'ilgan. Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor.

20-FEVRAL
Norqul MAMANOV – 1947-yilda Toyloq tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

Hamroxon OMONOVA – (1918-1996) Navbahor tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

MATBUOT UYI
Zarafshon
С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 649 nusxada chop etildi. Buyurtma 94. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda